

YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY AXLOQ VA XULQ-ATVOR NORMALARI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Din psixologiyasi va pedagogika"
kafedrasi professori v.b., psixologiya fanlari doktori
Akramov Mirmuxsin Rustamovich*

Atrof-muhitga, shu jumladan hayvonot va o'simlik dunyosi xilma-xilligiga nisbatan insonparvarlik g'oyalariga asoslanadigan munosabatni shakllantirish muhimligi hozirgi zamonaviy dunyoda hech kimda shubha uyg'otmasligi bilan birgalikda ko'plab mamlakatlarda ta'lim va tarbiya berishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bu borada, aholining ekologik ongini shakllantirish va atrof muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligini ta'minlab kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan barcha o'zgarishlar yaqin keljakda davlatimizning siyosiy va iqtisodiy barqarorligini, shaxs ma'naviyatini yuksaklikka ko'tarishni ta'minlashga yo'naltirilgan. Biroq, shuni alohida ta'kidlash kerakki, iqtisodiy yo'nalghanlikning kuchayishi tevarak olamga bo'lган munosabatning salbiy ko'rinishlarini vujudga keltirmoqda. Ya'ni jamiyatda iste'molchilik kayfiyatining tobora oshishi kuzatilmoqda. Shunday pallada insonning o'zini o'rab turgan tabiiy muhitga munosabati masalasiga e'tibor jamoatchilikning diqqat markaziga ko'chgan.

Mazkur muammo O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiysi, Dunyoviy davlatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari bobining 7-bo'limi 35-bandida "atrof-muhitga, shu jumladan hayvonot va o'simlik dunyosi xilma-xilligiga nisbatan insonparvarlik g'oyalariga asoslanadigan munosabatni shakllantirish" asosiy vazifalardan biri sifatida keltirilgan.¹

¹ Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг виждан эркинлигини таъминлаш ва диний соҳадаги давлат сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Тошкент ш., 2025 йил 25 февраль, ЎРҚ-1037-сон

Axloq (arab. Xulq so‘zining ko‘pligi) – kishilar orasidagi munosabatni tartibga solishning o‘ziga xos tartib, qoidalari yig‘indisi. Axloqdagi “yaxshilik”, “yaxshi odatlar” insonning o‘z manfaatini jamiyat manfaatini moslashga, ayrim o‘rinlarda jamiyat manfaatlari yo‘lida o‘z hayotiy maqsadlari, manfaatlarini o‘zgartirishga imkon beradi². Kishilar hatti-harakatini tartibga solishning belgilangan hamda ijtimoiy-tashkiliy tuzilmalar faoliyatiga asoslangan (huquqiy, diniy) shakllaridan farqli o‘laroq, axloq kishilar xulq-atvorlari, muloqotlari, munosabatlarining yozilmagan, lekin jamiyat tomonidan qabul qilingan hamda qo‘llab-quvvatlanadigan “oltin qoidalari”ni ifodalaydi. Axloq birinchidan, umumijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlarni (boshqa kishilar huquqlarnini tan olish,adolat, halollik, ishonch, sadoqat, muloyimlik, boshqalar bilan kelisha olish, til topishish, jamoada o‘zini tuta bilish kabi) qamrab oladi. Ikkinchidan, axloq kishilarga xos sifatlar (xislatlar)ning muhim tomonini ifodalaydi.

O‘zbekiston mustaqillika erishgandan so‘ng axloq muammolariga katta e’tibor berila boshladi. Kishilararo munosabatda, o‘zaro muomalada unutilib ketgan islomiy qadriyatlar, sharqona xulq-odob qoidalari, urf-odatlar, marosimlar qaytadan rasm bo‘la boshladi.

Axloq (lotin. “moralis” – qoidaga, xulq-atvorga, urf-odatga taalluqli, axloqli) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat hamda muloqotning qonun qoidalari, mezonlari yig‘indisi; har bir inson tan oladigan etik qadriyat; inson mavjudligining o‘z-o‘zini tarbiyalash, tartibga solish va boshqarishning o‘ziga xos usuli...³ Axloqning ildizlari urf-odatlarga borib taqaladi. Lekin axloq bilan urf-odat bir narsa emas. Urf-odat, axloqdan farqli o‘laroq, muayyan qolipga tushgan (standartlashgan), mavjud va bo‘lishi lozim narsalarni ifodalaydi. Axloq insonga o‘z yo‘lini tanlash, o‘z xulq-atvori, hatti-

² Фалсафа: энциклопедик луғат/ЎзР ФА, И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти.- Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.- 35 б

³ Фалсафа қисқача изохли луғат / М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У. Абилов ва бошк.: Т.: “Шарқ”, 2004 й. 49 б.

harakatlari munosabatlarini belgilab olish imkonini beradi. Axloqiy mas'uliyat tufayli inson o'z hatti-harakatlarini jamiyat va muayyan ijtimoiy guruh manfaatlariga moslashtirishga, "yaxshilik" sari yo'naltirishga intiladi. Axloq inson hayotining barcha tomonlari (shaxsiy va ijtimoiy, moddiy va ma'naviy kabilalar)ga bevosita taalluqlidir. Axloq – kishilarning yurish-turishlarida, xulq-atvorlarida, o'zlarini kishilar orasida tutishlarida namoyon bo'ladi. Axloq mezonlari va namunalari jamiyat bag'rida yetiladi, ularda ilgari surilgan talablar universal va barcha uchun rioya qilinishi zaruriydir. Axloq shaxs erkinligi va ijodkorligi bilan bevosita bog'liq. Shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy qadriyatlarni tanlab oladi, o'zlashtiradi, mavjud vaziyatga tatbiq etadi va takomillashtiradi. Axloqiy baholash jamoatchilik fikriga tayanadi. Axloq barcha uchun birdek xizmat qiladigan, qotib qolgan qoidalar yig'indisi emas, balki inson va jamiyat hayoti davomida shakllanib, sayqallanib, takomillashib boradigan ijtimoiy hodisadir. Axloq inson xulqi me'yorlarini uning jamiyat va borliqqa bo'lgan munosabatlar mas'uliyatini muhokama qilgan. U tabiat atrof muhit sohasiga bevosita kiritilmagan, biroq mavjud bo'lgan. Insonni tabiatga munosabati axloq nuqtai nazaridan baholanmagan, uning holati yaxlitligicha inson faoliyati va ko'lami bilan aloqadorlikda ko'rinnagan. Bunday munosabatlar antropotsentrik xarakterga ega bo'lgan chunki avvallari inson tabiatga qaram bo'lgan va uning ta'siridan himoyalangan. Inson tabiatdan o'zi uchun zarur narsalarni olgan. Tabiat tarixi inson tarixini yaratgan. Bu holatda tabiat jamiyat extiyojlarini qondirish uchun o'z faoliyatini moddiy ashyolarni taqozo etuvchi insoniy munosabatlar ob'ektiga aylangan. Mazkur holat insonning tabiatga nisbatan axloqiy yoki axloqqa zid munosabatlar haqida gapirish hamda axloq o'z ichiga ekologik yo'nalishni qamrab olishini ta'kidlab o'tish imkonini beradi.

Bunday axloqiy baho va muvofiqlashtirish ob'ektini tabiatning o'ziga emas, balki aynan insonning tabiatga bo'lgan munosabati tashkil etadi. Insonning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllanishi axloqiy tarbiya tarkibidagi ekologik komponentning asosiy mazmuni va predmetini tashkil etadi.

Demak, xulosa qiladigan bo'lsak inson tabiatning bir bo'lagi ekan undagi

o'zgarishlar ekologik ongdagi (tabiat) o'zgarishlarga ham turtki bo'lishi mumkin.

Shu bilan biga, shaxs axloqiy ongidagi yuzaga keladigan o'zgarishlarni va ekologik ongni o'rganish bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: axloqiy ongi shakllanishi xususiyatlari tor oilaviy muhitdan keng ijtimoiy muhitga ko'chishi bilan belgilanadi; axloqiy ong taraqqiyotining dinamikasi ong sub'ektlarini tadqiqot ob'ekti sifatidagi klassifikatsiyasini amalga oshirish imkoniyatini beradi; axloqiy ongni statik hodisa sifatida ko'zdan kechirish psixologik diagnostika natijalaridagi anglashilmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. III.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг виждан эркинлигини таъминлаш ва диний соҳадаги давлат сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Тошкент ш., 2025 йил 25 февраль, ЎРҚ-1037-сон
2. Ботиров Б.М. “Ўзбек менталитетининг психологик хусусиятлари” - Тошкент, ТДПУ, 2011 й. 64 б.
3. M. R. Arkamov The ethical awareness behavior of students during higher education (in the condition of uzbekistan) //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2016. – T. 4. – №. 10
4. Хвостов Андрей Анатольевич. Структура и детерминанты морального сознания личности : Дис. ... д-ра психол. наук: М., 2005 496 с
5. Фалсафа: энциклопедик луғат/ЎзР ФА, И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти.- Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.- 35 б